NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.F.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SALAYEV FAZLIDDIN SHAMSIDDIN O‘G‘LI

O‘ZBEKISTONDA ETNOSLARARO JARAYONLAR RIVOJIDA IJTIMOIY-DEMOGRAFIK OMILLARNING O‘RNI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Namangan – 2026

UDK: 314.15/.18:323.1(575.1)

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по философским наукам

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on Philosophical Sciences

Salayev Fazliddin Shamsiddin o‘g‘li
O‘zbekistonda etnoslararo jarayonlar rivojida ijtimoiy-demografik omillarning o‘rni 3

Салаев Фазлиддин Шамсиддин угли
Роль социально-демографических факторов в развитии межэтнических процессов в Узбекистане 25

Salaev Fazliddin Shamsiddin ugli
The Role of Socio-Demographic Factors in the Development of Interethnic Processes in Uzbekistan 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 56

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.F.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SALAYEV FAZLIDDIN SHAMSIDDIN O‘G‘LI

O‘ZBEKISTONDA ETNOSLARARO JARAYONLAR RIVOJIDA IJTIMOIY-DEMOGRAFIK OMILLARNING O‘RNI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Namangan – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.PhD/Fal1828 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb sahifasida (namdu.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Nazarov Nasriddin Ataqulovich** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Haydaraliyev Shuxrat Abdulazizovich** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
	Musayev Odil Rahmatovich falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

2
0

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.F.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “31” 10 soat 11⁰⁰dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01, faks: (+99869) 228-85-02. e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160107, Namangan shahri, Bobursho‘x ko‘chasi, 161-uy, Tel: (+99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “19” 10 kuni tarqatildi.
2026-yil “19” 10 dagi 19 raqamli reyestr bayonnomasi.

B.A.Talapov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

N.M.Kodirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

R.R.Zamilova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sodir bo‘layotgan globallashuv, migratsiya jarayonlarining kuchayishi, aholi sonining o‘sishi, shaharlashuv sur’atlarining ortishi kabi ijtimoiy-demografik omillar etnoslararo jarayonlarga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday etnoijtimoiy va demografik to‘lqinlar an’anaviy monoetnik makonlarni o‘zgartirib, ko‘p madaniyatlilik jarayonlarining rivojini va ijtimoiy-demografik nomutanosibliklarni ham keltirib chiqarmoqda. Etnik hamda migratsiyalashuv to‘lqinlarining bunday shiddatli ko‘rinishi etnik bir xillikka asoslangan an’anaviy chegaralarni yuvib ushbu sohada ham global ta’sirlarni yaqqol namoyon etmoqda. Natijada ko‘plab holatlarda jahondagi milliy birliklar va etnik guruhlar orasida tadrijiy shakllangan, ijtimoiy paradigmal voqelikka aylanib kelgan tabiiy birlik va yaxlitlikka ham jiddiy ta’sir etib, insoniyatning hamjihatligini xavf ostiga olmoqda.

Dunyoda globallashuv va kuchli migratsiya to‘lqinlari an’anaviy monoetnik makonlarni o‘zgartirib, ko‘p madaniyatlilik jarayonlarining rivojini va ijtimoiy-demografik nomutanosibliklarni keltirib chiqarmoqda. Dunyo miqyosida etnodemografik jarayonlar va millatlararo munosabatlarni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish borasida AQSHning Garvard va Stenford universitetlari qoshidagi ijtimoiy tadqiqot markazlari, Buyuk Britaniyaning Oksford Demografik instituti (Oxford Institute of Population Ageing) hamda Fransiyaning Milliy demografik tadqiqotlar instituti (INED) kabi yetakchi muassasalar yetakchilik qilmoqda. Ushbu ilmiy maktablarda globallashuv, migratsiya inqirozlari va urbanizatsiya sharoitida etnik o‘zlikni saqlash, multikulturalizm siyosatining transformatsiyasi hamda ijtimoiy-demografik omillarning milliy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikka ta’sirini baholashning ijtimoiy-konseptual modellarini yaratishga qaratilgan zamonaviy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Yangi O‘zbekiston aholisining milliy tarkibi rang-barangligi, turli etnik guruhlar vakillarining yagona hududda hamjihat yashashi mazkur jarayonlarni va bunday ijtimoiy-siyosiy tajribani chuqur ilmiy tahlil qilishni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “…qadimiy va saxovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab keladi. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma’nodagi bag‘rikenglik xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi”[1]. O‘zbek xalqiga xos bunday mental xususiyatlar etnoslararo jarayonlarning optimal mohiyatini ta’minlashga ham xizmat qilayotganligi e’tiborlidir. Mamlakatda etnoslararo jarayonlarning barqaror rivojlanishi milliy totuvlik va fuqaroviy hamjihatlikni ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan ijtimoiy-demografik omillarning etnoslararo jarayonlar rivojiga ta’sirini tadqiqot obyekti sifatida falsafiy tahlil qilish ijtimoiy zaruriyat sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi PF-5046-sonli “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 22-fevraldagi

[1] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2022. – Б. 293.

PF-5667-sonli “Sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, “Umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2025-yil 19-martdagi PF-52-sonli Farmoyishlari va mavzuga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Etnoslararo jarayonlar va demografik omillarga doir dunyo falsafiy merosi hamda millatlararo munosabatlarni demokratik qadriyatlar asosida yanada takomillashtirishga oid konseptual g‘oyalar mazkur tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning mavzuga doir asarlari[2], ushbu tadqiqot uchun nazariy asos va metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur asarlar shunisi bilan ahamiyatliki, ular dissertatsiya ishining fundamental-uslubiy asosini tashkil etsa, sohaga tegishli qonun hujjatlari, Prezident farmonlari, qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar tadqiqotning me’yoriy hamda huquqiy bazasi bo‘lib xizmat qiladi.

Mavzu doirasida xalqaro ilmiy maktablar bir qator ilmiy faoliyatlarni amalga oshirganlar. Jumladan, Garvard va Stenford markazlari (B. Anderson, E. Gellner): Etnik jarayonlarni siyosiy va ijtimoiy “konstruksiya” deb biladi. Urbanizatsiya va ta’lim darajasi (ijtimoiy mobillik) etnik chegaralarni yuvib yuborish fikrini ilgari suradi. Oksford Demografiya instituti va Fransiyaning INED markazi (D. Koulmen): Migratsiya oqimlari, tug‘ilish dinamikasi va mehnat bozoridagi raqobatning ko‘petnik jamiyatlar barqarorligiga ta’sirini sotsiologik modellar orqali tadqiq etgan. MDH etnosotsiologiya maktabi (V. Tishkov, L. Drobijeva): Postsovet makonidagi migratsiya to‘lqinlari va til siyosatining milliy o‘zlikka ta’sirini tadqiq etgan. Shunday bo‘lsa-da, mavjud xorijiy nazariyalarni hamda ilmiy tajriba natijasidagi xulosalarni Yangi O‘zbekiston voqeligiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirib bo‘lmaydi, chunki: G‘arb modellari etnik jarayonlardagi global o‘zgarishlarni tashqi migratsiya faol ta’siri bilan bog‘liq holda o‘rganadi. O‘zbekistonda esa asrlar davomida bir hududda yashab kelgan, madaniyati yaqin mahalliy (avtoxton) etnoslar totuvligini milliy qadriyatlarimiz asosida ta’minlash ustuvor. Yevropa ilmiy doiralarida esa aholining qarishi va kamayishi fonidagi etnik jarayonlar tahlil qilinadi. O‘zbekiston voqeligida aksincha, yoshlar qatlamining ko‘payib borishi kuzatilmoqda. Bu esa ijtimoiy barqarorlikni saqlashda yoshlar tafakkurini boshqarishni talab qiladi. O‘zbekistonda esa davlat strategiyalari va mahalla instituti orqali etnik va

[2] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2022. – 440 б.; Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – 456 б.; Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва янги Ўзбекистон. – Тошкент: Ўзбекистон, 2024. – 554 б.

demografik jarayonlarni muvofiqlashtirishning milliy modeli yaratilgan. Umuman olganda, xorijiy nazariyalarda ijtimoiy-demografik omillar umumiy o‘rganilgan bo‘lsa-da, O‘zbekistondagi demografik o‘sish va ichki migratsiya sharoitida etnoslararo barqarorlikni ta’minlashning ma’naviy-falsafiy asoslari yaxlit tizim sifatida tadqiq etilmagan.

XX asrdagi etnoslararo jarayonlarga doir ilmiy tahlillarning ba’zilari Sobiq Ittifoq sharoitida amalga oshirilgan, O‘zbekiston mustaqilligidan keyin ham bu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar tizimli ravishda olib borilmoqda. Etnoslararo jarayonlar va ijtimoiy-demografik omillarning nazariy-metodologik tadqiqini ochib berish borasida turli sohalarda, jumladan, falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik, tarix va boshqa fanlar doirasida muayyan izlanishlar amalga oshirilgan. Buning natijasida turli maqolalar, monografiya, o‘quv qo‘llanmalar e’lon qilingan, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari doirasida turli mavzularda izlanishlar olib borilgan. Mazkur muammoni o‘rganishda O‘zbekiston olimlaridan A. Asqarov, S. Otamurodov, B. Karimov, I. Xo‘jamurodov, A. Ochildiyev, A. Ashirov, N. Nazarov, O. Musayev , Sh. Haydaraliyev va boshqalar muayyan hissa qo‘shdilar[3].

O‘zbekistonda etnoslararo jarayonlarning ijtimoiy-demografik jihatlarini o‘rganishda D. Bobojonova[4], R. Murtazayeva[5], L. Maksakova[6], M. Bo‘riyeva[7] kabi demograf olimlarning olib borgan tadqiqot ishlari alohida o‘rin tutadi. Shuni ta’kidlash o‘rinliki yillar davomida demografik muammolarni o‘rganish borasida tadqiqot ko‘lami yanada kengayib bormoqda[8].

---

[3] Qayd etilayotgan mualliflar asarlarining nomi va chop etilganligiga oid ma’lumotlar dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati”da keltirilgan.

[4] Бобожонова Д. Ўзбекистонда демографик жараёнлар ва уларнинг хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1995. – 93 б.

[5] Муртазаева Р. Миллатлараро тотувлик – бағрикенглик ва тараққиёт омили. – Тошкент: Академия, 2005. – 148 б.; Мустақиллик ва ижтимоий тараққиёт. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 235 б.

[6] Максакова Л. Миграция населения: проблемы регулирования. – Ташкент, 2001. – 185 с.

[7] Буриева М.Р. Рождаемость в Ўзбекистане. –Ташкент: Фан, 1991. – 203 с.; Ўзбекистонда оила демографияси. –Тошкент: 1997. – 128 б.; Демография асослари. – Тошкент: Университет, 2001. – 75 б.

[8] Муртазина Р. Рождаемость, браки, разводы в цифрах // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Тошкент, 2001. – №1 (13). – Б. 86.; Муртазина Р. Демографические процессы и здоровье населения Ўзбекистана. // Ижтимоий фикр. Инсон хукуклари. – Тошкент, 2002. – №1 (17). – Б. 37.; Муртазина Р. Миграция в Узбекистане: современное ситуация и направления её регулирования. // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. – Toshkent, 2006. – B. 53.; Муртазина Р. Особенности и тенденции формирования миграционных процессов населения Ўзбекистана. // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. – Toshkent, 2005. – №3 – B. 26.; Райымбаев Ч.К. Демографические процессы и рынок труда в условиях современного мирового развития. // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. – Toshkent, 2004. – №3-4 – B. 77.; Tojiyeva Z.N. O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning ijtimoiy-demografik masalalari. // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. – Toshkent, 2010. – №1-2 – B. 56.; Rozimova Y. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi tarixiy demografik jarayonlar masalasiga doir. // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. – №4 (40). – Toshkent, 2007. – B. 104.; Egamberdiyeva G.R. Toshkent shahrining demografik salohiyati va undagi o‘zgarishlar // O‘zbekistonning innovatsion taraqqiyoti-yoshlar nigohida: Respublika yosh olimlari va iqtidorli talabalar ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to‘plami. I qism. – Toshkent: Universitet, 2010. – B. 295.; Babadjanova N.A. O‘zbekiston Respublikasida tarixiy-demografik jarayonlar (1991-2001-yillar). // O‘zMU xabarlari. – Toshkent, 2001. – B. 45.; Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Ўзбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. – Ташкент: Абу Али Ибн Сино, 1998. – 161 с.; Муртазаева Р.Х. Ўзбекистонда миллатлараро бағрикенглик ва умуммиллий ғоя // Тарих, мустақиллик, миллий ғоя: Республика илмий назарий анжуман материаллари. – Тошкент: Академия, 2001. – Б. 25.; Муртазаева Р.Х. Демографические процессы и национальная политика народонаселения Ўзбекистана // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари. Илмий мақолалар тўплами. – №2. – Тошкент, 2011. – Б. 11.; Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Межнационалная толерантность в Ўзбекистане: история и современность: Монография – Ташкент, 2006. – 179 с.; Салиев А.С. Асобенности городского расселения и развития урбанизации в Узбекистане // Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари: тарих ва ҳозирги замон. I қисм. –Тошкент, 2007. – Б.

Mavzuga oid xorijda chop etilgan adabiyotlarda nafaqat Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O‘zbekistondagi demografik jarayonlarning ham turli qirralarini yoritishga erishgan O.Ye. Kuzmina, P.I. Puchkov, Yu. Kulchik, B.S. Urlanis, D.K. Shelestov, L.Ye. Darskiy kabi olimlar o‘z ilmiy tadqiqotlarida[9] demografiya va etnodemografiya, urbanizatsiya, migratsiya xususiyatlari va demografiya tarixi, nazariy asoslar borasida to‘xtalib o‘tishgan. MDH olimlari T. Gabitov[10] etnos va millatlar o‘rtasidagi totuvlik, avvalo, jamiyatdagi ijtimoiy tenglik ko‘rsatkichlarida o‘z aksini topishini, M. Kogan[11] tadqiqotlarida millatlararo totuvlikning shakllanishi va barqarorligi davlat boshqaruvida ustuvor bo‘lgan mafkuraviy qarashlar bilan chambarchas bog‘liqligini, F. Xudoydodzoda, N. Maxmadizoda ko‘p etnosli jamiyatlarda turli etnik guruh vakillariga nisbatan teng va adolatli ijtimoiy himoya tizimini ta’minlashning muhim ahamiyatga ega ekanligi muammolarini tadqiq etishganlar.

Xorijiy tadqiqotlarda S. Sassen, B. Anderson, A. Bastian, E.S. Lee, T. Parsons, E.G. Ravenstein, S. Castles, M.J. Miller, D. Frisby kabi G‘arb olimlari tomonidan etnik jarayonlarning ijtimoiy-demografik mazmuni, migratsiya va urbanizatsiyaning etnik tarkib hamda identifikatsiyaga ta’siri, globallashuv sharoitida etnoslararo munosabatlarning transformatsiyasi kabi masalalarini o‘rganganlar[12].

Yuqorida keltirilgan ilmiy adabiyotlar, himoya qilingan nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida tadqiqotimiz uchun nazariy-metodologik ahamiyatga ega bo‘lgan g‘oyalar va ilmiy qarashlarning ayrim qirralari ilgari surilgan. Ayni paytda, mazkur masalaning ko‘lami nihoyatda keng bo‘lib, mavjud tadqiqotlarda etnoslararo munosabatlar hamda ijtimoiy-demografik jarayonlarning muayyan jihatlari yoritilgan bo‘lsa-da, O‘zbekistonda etnoslararo jarayonlar rivoji va ijtimoiy-demografik omillarning o‘zaro dialektik aloqadorligi, ularning jamiyat ijtimoiy barqarorligi, millatlararo totuvlik va fuqaroviy birlikka ta’siri yaxlit ijtimoiy-falsafiy tadqiqot sifatida yetarlicha tizimli tahlil etilmagan. Bugungi kunda O‘zbekistonda etnomigratsion jarayonlarning yaqqol namoyon bo‘layotganligi sharoitida uni o‘rganishga bo‘lgan zarurat kundan-kun ortib bormoqda. Mazkur muammoni o‘rganish va kengroq falsafiy tahlil qilish mamlakatimiz ziyolilari oldida turgan ayrim etnodemografik muammolarga yechim topish, ularning salbiy oqibatlarining oldini olish, pirovard maqsadda xalqimiz hayoti, davlatimizning ichki va tashqi siyosati, jamiyatimizning ijtimoiy va madaniy taraqqiyotiga ko‘plab foyda keltirish imkonini beradi. Aynan shunday muhim masalalar mazkur mavzuni tadqiqotning obyekti sifatida tanlanishi uchun asos bo‘ldi.

25.; Саипова К.Д. Изучение демографической структуры населения туркестанской АССР в 1918-1924-гг. // O‘zbekiston tarixining dolzarb muammolari. Ilmiy maqolalar to‘plami. – №3. – Toshkent, 2013. – B. 141.

[9] http//www.Auditorium.ru,books/319.

[10] Габитов Т. Казахская энциклопедия. – Алматы: Йылим, 2018. – 285 с.

[11] Коган М. О себе и о жизни. – Санк-Петербург: Питер, 2001. – 265 с.

[12] Sassen S. The Global City: New York, London, Tokio. – Princeton University Press, 1991, – 200 p.; Anderson B. Imagined Communities. – New York, 2006, – 256 p.; Bastian A. Ethnische Elementargedanken in der Lehre von Menschen. – Berlin, 1895. – 203 p.; Lee E.S. A Theory of Migration // Demography. – 1966. – Vol. 3. – P. 57.; Parsons T. The Social System. – Glencoe: Free Press, 1951. – 584 p.; Ravenstein E.G. The Laws of Migration // Journal of the Statistical Society of London. – London, 1885. – Vol. 48. № 2. – P. 198; Castles S., Miller M.J. The Age of Migration. – New York: Guilford Press, 2009. – 352 p.; Frisby D. Simmel and Since: Essays on Georg Simmel’s Social Theory. – London: Routledge, 1992. – 214 p.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining “Yangi O‘zbekistonda jamiyat taraqqiyotini ta’minlashning siyosiy va ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tadqiq etish (2021-2026-yillar)” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda etnoslararo jarayonlar va ijtimoiy-demografik omillarning o‘zaro dialektik aloqadorligini ijtimoiy-falsafiy jihatdan ochib berish, ularning jamiyat ijtimoiy barqarorligi, millarlararo totuvlik va fuqaroviy birlikni mustahkamlashdagi o‘rnini paradigmal hodisa sifatida ilmiy-nazariy hamda empirik jihatdan asoslash, shuningdek ko‘p millatlilik sharoitida etnoslararo munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Etnoslararo jarayonlar va ijtimoiy-demografik omillarning mazmun-mohiyati, namoyon bo‘lish shakllarining nazariy-metodologik asoslarini o‘rganish;

Etnoslararo jarayonlar va ijtimoiy-demografik omillarning dialektik aloqadorligini O‘zbekistonda etnodemografik jarayonlarning shakllanishi, tadrijiy bosqichlarini ilmiy manbalar asosida tizimli tahlil etish;

Etnoslararo va demografik jarayonlar holatini Sovetlar davri ko‘p millatlilik, mustaqillik yillarida ko‘p etnoslilik holatlarini ijtimoiy-retrospektiv yondashuvlar asosida tahlil etib, Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda Taraqqiyot Strategiyasining ahamiyatini ilmiy asoslash;

O‘zbekiston istiqbolini belgilash va mamlakatimizning barqaror taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish uchun etnoslararo jarayonlarni optimallashtirish asosida fuqaroviy birlikni ta’minlash muhim konseptual omil ekanligiga doir ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy-demografik omillar ta’sirida kechayotgan etnoslararo jarayonlar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini O‘zbekistonda ijtimoiy-demografik omillarning etnoslararo jarayonlarga ta’sirining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari va qonuniyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiylik, mantiqiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, analiz, sintez, empirik, kuzatuv, anketa so‘rovnomasi kabi ilmiy bilish usullari qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonda aholi soni dinamikasi, migratsiya, urbanizatsiya, yosh tarkibi va nikoh munosabatlarining etnoslararo barqarorlikka ta’siridagi ijtimoiy-falsafiy aloqadorlik va sabab-oqibat bog‘liqliklari nazariy jihatdan asoslanib, ularni ifodalovchi tizimli-funksional model ishlab chiqilgan.

Respublika hududlari kesimida etnik tarkib va demografik o‘zgarishlarning etnoslararo munosabatlarga ta’sirining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari aniqlanib, ko‘p etnosli muhitda fuqaroviy birlik va umumiylikni ta’minlashning g‘oyaviy va ma’naviy qadriyatlar tizimiga tayanuvchi ma’naviy integratsiyalashuv mezonlari nazariy jihatdan dalillangan.

Etnoslararo totuvlikni mustahkamlashda aholining oilaviy tarbiya, bilim

darajasi, Vatan taqdiri uchun mas’ullik hissi, bandlik holati va ijtimoiy mobillik ko‘rsatkichlarining ahamiyati nazariy asoslanib, ularning ijtimoiy integratsiyaga ta’sirini baholashning yangi metodologik yondashuvi, shuningdek, demografik o‘sish va yoshlar qatlamining ko‘pligi sharoitida, davlat strategiyalari muvaffaqiyati ularning tafakkurida bag‘rikenglik va mafkuraviy immunitetni shakllantirishi o‘rtasidagi ijtimoiy-falsafiy aloqadorlik ochib berilgan.

O‘zbekiston sharoitida etnoslararo jarayonlarning optimal holatini samarali boshqarish va prognozlash maqsadida ijtimoiy-demografik omillarga asoslangan monitoring mexanizmi hamda millatlararo barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar va institutsional takliflar shakllantirilib, ijtimoiy-falsafiy monitoring va ijtimoiy prognozlashning metodologik parametrlari asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Etnoslararo jarayonlar va ijtimoiy-demografik omillarning mohiyati, dialektik aloqadorligi, tadrijiy bosqichlari, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda demografik jarayonlarni muvofiqlashtirishning istiqbollari masalalari yoritib berilgan.

Dissertatsiyada 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo‘nalishi, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining 74-maqsadi, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 100-maqsadi doirasida etnoslararo jarayonlarni takomillashtirishda milliy totuvlik va konfessiyalararo hamjihatlik, davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va diniy tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, demokratik jarayonlar, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining milliy totuvlikni ta’minlashga ta’sirini kuchaytirishga doir amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalarda muhokama qilinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotda o‘z aksini topgan xulosalar O‘zbekistonda etnoslararo jarayonlar rivojida ijtimoiy-demografik omillarning o‘rnini chuqur anglab yetishga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Bu masalani tadqiq etish O‘zbekistonda etnoslararo munosabatlarga oid ilmiy izlanishlarda ijtimoiy-demografik omillarning tutgan o‘rnini to‘g‘ri baholashga, uning barqaror taraqqiyotni ta’minlashdagi ahamiyatini yosh olimlarning yanada chuqur bilishlari uchun sharoit yaratadi. Ayni paytda, dissertatsiyada bayon etilgan xulosalar ushbu yo‘nalishdagi keyingi tadqiqotlar uchun muayyan nazariy manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ulardan ijtimoiy-amaliy va madaniy-ma’rifiy tadbirlarda, “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi, fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy tadbirlar, sotsiologik so‘rovlarni o‘tkazishda, ommaviy axborot vositalarida, radioeshittirishlar, tahliliy teleko‘rsatuvlar tayyorlashda, hamda o‘quv-tarbiya bilan shug‘ullanuvchi muassasalar faoliyatida foydalaniladigan o‘quv-metodik qo‘llanmalar tayyorlashda

foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

O‘zbekistonda etnoslararo jarayonlar rivojida ijtimoiy-demografik omillarning o‘rni bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy takliflar asosida:

O‘zbekistonda etnoslararo jarayonlar rivojiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-demografik omillarning (aholi soni dinamikasi, migratsiya, urbanizatsiya, yosh tarkibi, nikoh munosabatlari) o‘zaro bog‘liqlik mexanizmi hamda jamiyatning modernizatsiyalashuvi sharoitida demografik dinamika, ya’ni aholining zichlashuvi va migratsiya oqimlari hamda etnoslararo jarayonlarining barqarorligi o‘rtasidagi sabab-oqibatli bog‘liqliklari ma’lumotlaridan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutida 2024-2026-yillarga mo‘ljallangan ALM-202403110247 “Yoshlarni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish va ma’naviy-axloqiy tarbiyalash bo‘yicha o‘quv va ilmiy-metodik qo‘llanmalar, uslubiy tavsiya, ma’rifiy adabiyot va media mahsulotlar majmuasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan. (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining 2026-yil 5-iyundagi 100/400-son ma’lumotnomasi). Natijada aholi soni dinamikasi, migratsiya, urbanizatsiya, yosh tarkibi va nikoh munosabatlarining etnoslararo barqarorlikka ta’siri to‘g‘risidagi ma’lumotlardan mamlakatimizda etnoslararo ma’naviy va madaniy muhitni yanada rivojlantirishga xizmat qilgan;

Respublika hududlari kesimida etnik tarkib va demografik o‘zgarishlar asosida etnoslararo munosabatlar rivojlanishining hududiy xususiyatlari hamda ko‘petnosli muhitda fuqaroviy birlik va umumiylikni ta’minlashning g‘oyaviy va ma’naviy qadriyatlar tizimiga tayanuvchi ma’naviy integratsiyalashuv mezonlaridan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 2026-yilga mo‘ljallangan Amaliy tadbirlar rejasining 85-bandi “Davlat organlari rahbarlari va yoshlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ochiq muloqotini yo‘lga qo‘yish maqsadida “Rahbar va yosh xodimlar”, “Deputat va yoshlar”, “Tadbirkorlar va yoshlar” uchrashuvlarini tashkil etish” kabi vazifalarni bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2026-yil 17-iyundagi 05-01-21-4271-sonli ma’lumotnomasi). Natijada etnoslararo totuvlik va ijtimoiy-demografik barqarorlikni ta’minlash borasidagi ilmiy xulosalar va tavsiyalardan sohada amalga oshiriladigan samarali siyosat va ilmiy asoslangan chora-tadbirlar O‘zbekistonning barqaror taraqqiyoti, jamiyat tinchligi va farovonligining mustahkam kafolati bo‘lib xizmat qilgan;

Etnoslararo totuvlikni mustahkamlashda aholining bilim darajasi, bandlik holati va ijtimoiy mobillik ko‘rsatkichlarining ahamiyati, ularning ijtimoiy integratsiyaga ta’sirini baholashning yangi metodologik yondashuvi, shuningdek, demografik o‘sish va yoshlar qatlamining ko‘pligi sharoitida, davlat strategiyalari muvaffaqiyati ularning tafakkurida bag‘rikenglik va mafkuraviy immunitetni shakllantirishga oid xulosa, taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasining konferensiya, seminar, davra suhbatlari, shuningdek madaniy-gumanitar sohalardagi tadbirlarini tashkil etish uchun foydalanildi (O‘zbekiston

Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasining 2026-yil 18-iyundagi 37-02-14/1150-sonli ma’lumotnomasi). Natijada etnoslararo totuvlikni mustahkamlashda aholining bilim darajasi, bandlik holati va ijtimoiy mobillik ko‘rsatkichlarilariga oid xulosa va tavsiyalar O‘zbekistonning jadal rivojlanishi, jamiyat taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarida fuqaroviy birlikni mustahkamlash, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilgan;

O‘zbekiston sharoitida etnoslararo jarayonlarni samarali boshqarish va prognozlash maqsadida ijtimoiy-demografik omillarga asoslangan monitoring mexanizmi hamda millatlararo barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar va institutsional takliflarga doir g‘oyalar, xulosalar, ilgari surilgan taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasining yoshlar va keng jamoatchilik o‘rtasida olib borayotgan ma’naviy-ma’rifiy hamda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik yo‘nalishidagi tadbirlari mazmunini boyitishda foydalanildi (O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashining 2026-yil 18-iyundagi 6-263-sonli dalolatnomasi). Tadqiqot ishida keltirilgan yangiliklar va taklif-tahlillardan O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasida ma’naviy-ma’rifiy faoliyat samaradorligini oshirish, jamiyatimizda etnoslararo jarayonlar va millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirishga xizmat qilgan. Shuningdek, dissertatsiya ishi natijalari amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanligi hamda ularni keng miqyosda joriy etish maqsadga muvofiqligi e’tirof etilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 4 ta xalqaro, 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruza shaklida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 19 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan 4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 145 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida ilmiy tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, predmeti, obyekti, ilmiy izlanishning maqsad va vazifalari, uning respublika fan va texnologiyalarining ustuvor yo‘nalishlari bilan uzviy aloqadorligi, ilmiy yangiligi, fan va amaliyot uchun ahamiyati asoslangan. Ilmiy izlanishlar natijalari bo‘yicha nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **birinchi bobi “Etnoslararo jarayonlar va ijtimoiy-demografik omillarning nazariy-metodologik tadqiqi”** deb nomlangan. Unda etnoslararo jarayonlar tushunchasi va uning mohiyati, etnoslararo jarayonlar va ijtimoiy-demografik omillarning dialektik aloqadorligi ularning jamiyat taraqqiyotidagi muhim jihatlari ochib beriladi.

Ma’lumki har bir xalqning etnogenezi etnik tarixi bilan uzviy bog‘liqdir. U tarixiy yozma manbalar, etnografiya, arxeologiya, antropologiya, lingvistika, toponimika, epigrafika, numizmatika kabi fanlar bilan o‘zaro aloqada va uzviy bog‘liq bo‘lib, ularsiz etnoslararo jarayonlarni mukammal ilmiy o‘rganib bo‘lmaydi.

Shuningdek, etnoslararo jarayonlarning mohiyati va xususiyatlarini o‘rganishda etnologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik hamda madaniyatshunoslik fanlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning falsafiy jihatlarini tadqiq etib etnoslararo jarayonlarning mohiyati va xususiyatlarini umumlashtirish falsafaning muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Etnologiyaga oid tadqiqotlarda etnik birliklar va munosabatlarning turli shakllarini anglatish uchun “etno” tushunchasi vositasida etnos, etnologiya, etnografiya kabi tushunchalar qo‘llaniladi. Mazkur tushunchalarning har biri o‘ziga xos ma’no va mohiyatni ifodalasada umumiy ma’noda entnoslararo jarayonlarning mazmun-mohiyatini ifodalashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-demografik omillar jamiyatda kechadigan barcha ijtimoiy jarayonlarning, jumladan, etnoslararo munosabatlar va etnoslararo jarayonlarning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy tushunchalardan biri hisoblanadi. Demografiya va sotsiologiya (jamiyatshunoslik), shu jumladan falsafa fanlari ushbu omillarni aholi tuzilishi, uning dinamikasi, ijtimoiy rivojlanish tendensiyalari va etnik tarkibdagi o‘zgarishlar bilan bog‘lab o‘rganadi.

Ijtimoiy-demografik omillar – aholining soni, yoshi, jinsi, etnik tarkibi, urbanizatsiya darajasi, migratsiya jarayonlari, ta’lim va bandlik holati kabi demografik ko‘rsatkichlarning ijtimoiy hayotga va etnik munosabatlarga ta’sirini ifoda etuvchi omillarni o‘z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, demografik jarayonlar – nafaqat aholining tabiiy o‘sishi yoki kamayishi, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar xarakterini ham belgilaydi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mintaqalarning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik taraqqiyotida aholi xususan inson omili masalasi, uning turmush tarzini hisobga olish davlat siyosatida ustuvor vazifa hisoblanadi. Ma’lumki, O‘zbekiton o‘z ijtimoiy taraqqiyoti yo‘lidan barqaror rivojlanishida davom etayotgan hozirgi davrda shu zaminda yetishtirilayotgan va ishlab chiqarilayotgan moddiy ashyolar, birinchi navbatda inson manfaati uchun ya’ni uni himoya qilish, muhofaza etish, ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasini yuksaltirishga yo‘naltirilgan. Bu borada respublikadagi demografik jarayonlar va ularning istiqbollarini o‘rganish muhim o‘rin tutishi shubhasiz. Xususan, butun dunyodagi qolaversa, butun Markaziy Osiyodagi demografik jarayonlar tarixi ham uzoq asrlar davomida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan. Shu boisdan, aholisi tez o‘sayotgan mamlakatlardan biri bo‘lgan, respublikamizdagi demografik holat va uning istiqbollarini tadqiq etish uchun ijtimoiy-demografik omillarga nazariy yondashish tadqiqotimizning yana bir muhim jihati hisoblanadi.

Makon va zamonda doimo to‘xtovsiz yangilanib, o‘zgarib turadigan kishilar guruhi bo‘lmish “etnos”, aholi sur’atidagi o‘sish, pasayish yohud qandaydir o‘zgarishlar uning hududiy in’kosida birdan sezilmaydigan ijtimoiy hodisadir. Aholi soni, hududiy jug‘rofiy etnik tarkibi, ularning o‘zaro munosabati jamiyatning

o‘tmishi, buguni va kelajak taraqqiyotini o‘zida ifodalaydi. Etnoslararo jarayonlarning mohiyati va o‘zgarishini anglashda ijtimoiy-demografik omillar eng muhim tuzilmalardan biri hisoblanadi. Chunki har qanday etnik tizimning shakllanishi, rivojlanishi va o‘zgarishi avvalo uning demografik asosi – aholi tarkibi, yosh-jins strukturasi, migratsiya oqimlari, hududiy joylashish xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Bu munosabatlar bir tomonlama emas, balki dialektik, ya’ni o‘zaro ta’sir va o‘zaro shartlanish xususiyatiga ega. Etnik jarayonlar demografik o‘zgarishlarni belgilasa, demografik omillar ham etnik munosabatlarning xarakteriga ta’sir ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda etnodemografik va ijtimoiy jarayonlarning tadrijiy bosqichlari hamda ko‘p etnoslilik” deb nomlangan ikkinchi bobi**da O‘zbekistonda etnodemografik jarayonlarning shakllanishi va tadrijiy bosqichlari atoqli olimlarning etnodemografik jarayonlar haqidagi nazariya va ta’limotlari, mazkur yo‘nalishda shakllangan mumtoz hamda zamonaviy nazariyalar tadrijiy tahlil qilingan, ularni falsafiy o‘rganish muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan, shuningdek, sobiq sovetlar sharoiti va mustaqillik davrida ko‘petnoslik munosabatlari qiyosiy tahlil qilingan.

Har bir xalqning etnogenez va etnodemografik tarixi o‘sha xalq tarixining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu ma’noda o‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi ham O‘zbekiston tarixining ajralmas tarkibiy qismi, uning bosh masalasi bo‘lib qoladi. O‘zbekston Respublikasi milliy mustaqillikni qo‘lga kiritgandan kundan boshlab uning hududida yashagan xalqlarning etnik tarixi, kelib chiqishi, shakllanish jarayonlari, qadriyatlarga aylangan asriy an’analarini o‘rganishga alohida e’tibor berila boshlandi.

Darhaqiqat, qadimda shu zaminda qaysi etnoslar qo‘nim topgan, o‘zbek xalqining ajdodlari kimlar edi? Ularning eng qadimgi etnogenezi qaysi davrga borib taqaladi? Bu xalq millat bo‘lib shakllanishida qaysi etnoslarning tili yetakchilik qilgan? Shu va boshqa savollarga ilmiy tahlillar asosida javob topishimiz O‘zbekistonda etnodemografik jarayonlarning shakllanishi va tadrijiy bosqichlariga aniq ilmiy xulosa berishimizga asos bo‘ladi.

Manbalarda qayd etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda etnodemografik jarayonlar ko‘p asrlik tarixiy rivojlanish mahsuli hisoblanadi. Turli omillar natijasida yuz bergan jarayonlar, ayrim hollarda, mintaqa aholisi tarkibining boyishiga va turli etnik guruhlarning bir-biri bilan aralashuviga, gohida ba’zi urug‘-qabilalarning boshqa mintaqalarga chiqib ketishiga sabab bo‘lgan. Buning oqibatida yuzaga kelgan etnointegratsion jarayonlar xalqlarning madaniy hayoti hamda xo‘jalik turmush tarzida o‘zaro ta’sirni keltirib chiqargan va turli ko‘rinishlardagi an’ana, urf odatlar bir-birini boyitib borgan.

Har qanday ijtimoiy hodisa pirovard natijada siyosiy tizim, davlatning tuzilmaviy tashkilotlariga borib taqaladi, hamda siyosiy boshqaruvning strategik maqsadlariga ta’sir etadi, hatto ularni transformatsiyaga uchratadi. Shunday bo’lsada, etnoslararo munosabatlarga faqat siyosiy voqelik sifatida yondashish yetarli emas, ular ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismi sifatida keng yondashishni taqozo etadi.

Tarixan ko‘p etnoslilik jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy fenomeni hisoblanib, u turli tarixiy davrlarda o‘ziga xos shakl va mazmun kasb etgan. Ayniqsa, sobiq sovetlar sharoitida ko‘plab etnik guruhlarni yagona mafkuraviy-siyosiy makonda birlashtirishga qaratilgan davlat siyosati amalga oshirildi. Mazkur siyosat O‘zbekiston SSRga ham tegishli bo‘lib, SSSR davrida Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston, o‘ziga xos “etnik laboratoriya”ga aylantirilib, turli millatlardan iborat “yagona sovet xalqi”ning shakllanishi va yuksalib borishidagi etnik plantatsiyaga aylantirila borildi.

Ideologik jihatdan “millatlar do‘stligi” sifatida talqin qilingan bu davr, aslida murakkab ijtimoiy-siyosiy va madaniy transformatsiyalar jarayonini o‘zida ifodalagan mafkuraviy tizim edi. Shu ma’noda sovet davri tarixini ijtimoiy-retrospektiv nuqtai nazardan o‘rganish bugungi kundagi etnik jarayonlarni tushunish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ijtimoiy-retrospektiv yondashuv jamiyatdagi hodisa va jarayonlarni tarixiy taraqqiyot mantig‘i asosida o‘rganishni nazarda tutadi. Bu yondashuv etnik munosabatlarni muayyan davrning siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillari bilan bog‘liq holda tahlil qilish imkonini beradi.

Davlat mustaqilligi zamonaviy siyosiy tizimda davlatning suveren rivojlanishi, milliy manfaatlarni himoya qilish va barqaror jamiyat qurishning asosiy sharti hisoblanadi. Mustaqillik milliy davlatchilik, iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning asosiy omili sifatida namoyon bo‘ladi. Uzoq yillik tarixiy taraqqiyotdan ma’lumki, mustaqillik davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida tub o‘zgarishlarni amalga oshirish imkonini yaratadi va bu jarayon jamiyat barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shubhasiz, mustaqillik – ulug‘ va oliy ne’mat, har qanday xalqning eng ulug‘, eng muqaddas orzusi hisoblanadi. U insonning erkin yashashi, millatning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi, madaniyati va qadriyatlarini asrab-avaylashi uchun zarur bo‘lgan asosiy shartdir. Mustaqillik hech qachon tasodifan amalga oshib, osonlikcha kelib qolmaydi. U uzoq tarixiy jarayonlar, xalqning kurashi, qat’iyat va va fidoyiligi samarasi evaziga amalga oshadi. O‘zbekiston mustaqilligi ham ana shunday mashaqqatli yo‘l, tinimsiz ku’rashishlar natijasida qo‘lga kiritilgan.

Mustaqillik O‘zbekiston uchun nafaqat davlatchilikning tiklanishi, balki milliy va etnoslararo munosabatlar barqarorligining eng muhim ijtimoiy-siyosiy negizidir. Bu negiz konstitutsiyaviy prinsiplar, davlatning bu boradagi optimal siyosati, ijtimoiy-tarixiy meroslarga nisbatan jamiyat a’zolarining mas’uliyati asosida vujudga kelib, rivojlanib boruvchi oliy ijtimoiy-siyosiy qadriyatdir. Mustaqillik va milliy taraqqiyot asosida erishilgan barqarorlik va totuvlik kelajakda O‘zbekiston rivojlanishining asosiy omili bo‘lib qolishi bevosita etnoslararo jarayonlardagi pozitiv voqelik bilan bog‘liq.

Dissertatsiyaning **uchinchi bobi “Taraqqiyot strategiyasi va etnoslararo jarayonlar rivojini ta’minlashda ijtimoiy-demografik omillarga pragmatik yondashuv”** deb nomlangan. Unda taraqqiyot strategiyasi va etnoslararo jarayonlar, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda demografik jarayonlarni muvofiqlashtirish, fuqaroviy birlikni ta’minlashda etnoslararo jarayonlarni optimallashtirishning istiqbollari kabi masalalariga e’tibor qaratilgan.

Hozirgi globallashuv davrida davlatlarning barqaror rivojlanishi nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar, balki jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik, millatlararo totuvlik va madaniy xilma-xillikni saqlash bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, ko‘p millatli jamiyatlarda taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqishda etnoslararo munosabatlar muhim omil sifatida qaralmoqda.

Dissertatsiyada aksariyat davlatlarda strategiya yoki taraqqiyot strategiyasi – bu davlatning uzoq muddatli maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari va ularga erishish mexanizmlarini belgilab beruvchi kompleks dastur sifatida qaraladi. Ulardagi strategiyaning umumiy asosiy xususiyatlari: uzoq muddatliligi, tizimlilik, kompleks yondashuvni va institusional ta’minlanganlikni o‘zida ifoda etadi. Shuningdek, xalqaro me’yorlarda, taraqqiyot strategiyasi faqat iqtisodiy o‘sishni emas, balki ijtimoiy adolat, inson huquqlari va madaniy xilma-xillikni ham qamrab olishi lozimligi ta’kidlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev tashabbuslari asosida “O‘zbek modeli”ning mantiqiy davomi sifatida “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi” qabul qilindi. “Harakatlar strategiya”si ham besh bosqichda amalga oshirilib, ularning har biri bo‘yicha davlat dasturlari ishlab chiqildi. Xususan, unda mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi belgilangan: davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish; qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish; iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish; ijtimoiy sohani rivojlantirish; xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish[13].

Ma’lumki, har qanday davlat o‘z fuqarolarining turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy adolatni ta’minlash va aholining barqaror o‘sishini nazorat qilishga intiladi. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy siyosat va demografiya bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tushunchalardir.

Demografik jarayonlar – bu tug‘ilish, o‘lim, nikoh va ajralish, shuningdek, aholining ichki va tashqi migratsiyasi bilan bog‘liq o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayonlarning noto‘g‘ri yoki nazoratsiz rivojlanishi ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu boisdan ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda demografik jarayonlarni muvofiqlashtirish davlat siyosatining muhim masalalaridan biridir. Davlat aholi o’sishini ijtimoiy kafolatlash, migratsiyani boshqarish va urbanizatsiyani muvofiqlashtirish orqali ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashi mumkin bo‘ladi. Demografik jarayonlarning to‘g‘ri tahlili va muvofiqlashtirilishi mamlakatning barqaror rivojlanishi va aholining turmush darajasini yaxshilashda asosiy omil hisoblanadi

Demografik jarayonlarni to‘g‘ri boshqarish ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning muhim shartlaridan bo‘lib, aholi bilan bog‘liq o‘zgarishlarni ilmiy asosda tahlil qilish va ularga mos siyosat yuritish orqali jamiyatda barqarorlik taraqqiyotni ta’minlash imkoniyati yuzaga keladi.

[13] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // https://lex.uz/uz/docs/3107036?ONDATE=17.02.2026

Tadqiqotda, fuqaroviy birlik har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti, ijtimoiy totuvlik va milliy xavfsizlikni ta’minlashda muhim omil ekanligi haqida fikrlar ilgari suriladi. Ko‘p millatli jamiyatlarda etnoslararo munosabatlarni to‘g‘ri tashkil etish, ular o‘rtasida o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va hamjihatlik muhitini shakllantirish fuqaroviy birlikni ta’minlashning asosiy sharti bo‘lib hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan etnoslararo jarayonlarni muvofiqlashtirish (optimallashtirish) barcha davrlarda bo‘lgani kabi hozirgi davrning ham dolzarb vazifalaridan biri sifatida qaraladi.

Hozirgi davrning demokratik taraqqiyot yo‘li tom ma’noda murosa falsafasiga tayanadi. Aslida fuqaroviy birlik tushunchasi ham millatlar o‘rtasidagi hamjihatlikka, murosa falsafasiga asoslanadi. Fuqaroviy birlik – fuqarolarning umumiy qonunlar, qadriyatlar va davlatga sadoqat asosidagi birdamligini ifodalaydi. Insoniyat tarixiy taraqqiyotining qaysi davri yoki geografik hududiga nazar solmaylik ular fuqaroviy birlikni ta’minlash masalasiga alohida e’tibor qaratadi.

Mustaqillik yillarida, xususan, yangi O‘zbekiston strategiyasi doirasida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimizda umummilliy totuvlik, birdamlik va hamjihatlikni mustahkamlash, barcha fuqarolarga teng huquq va imkoniyatlar yaratish, ko‘p millatli xalqimizning O‘zbekiston farovonligiga daxldorligini kuchaytirish, xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni rivojlantirish, shuningdek, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida 2025-yil 19-martdagi PF-52-sonli Farmoni[14] va O‘zbekiston Respublikasi millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-115-sonli Qarori[15] umummilliy totuvlik va birdamlikni yanada kuchaytirishga qaratilgan muhim hujjatlar bo’lib, mamlakat ijtimoiy taraqqiyotini ta’minlovchi siyosiy-huquqiy dasturlar sifatida ahamiyatlidir.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlarni inobatga olib aytish mumkinki, O‘zbekistonda etnoslararo jarayonlar rivojida ijtimoiy-demografik omillarning o‘rni haqida xulosalar chiqarish uchun aholining turli millat va qatlamlari o‘rtasida sosiologik so‘rovnoma o‘tkazish tadqiqot xulosalarining yanada aniqroq bo‘lishini ta’minlaydi. Shu boisdan dissertatsiya ishi doirasida bir qator sosiologik so‘rovlar telegram kanallari orqali o‘tkazildi. Sosiologik so‘rovnoma o‘tkazishning asosiy maqsadi, O‘zbekistonda etnoslararo jarayonlar rivojida ijtimoiy-demografik omillarning o‘rnini aniqlashdan iborat bo‘ldi. Fikrimizcha, ushbu sosiologik so‘rovlar ijtimoiy-demografik omillarning etnoslararo jarayonlar rivojidagi o‘rnini ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil qilishda muhim rol o‘ynaydi.


